

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

№6

ILMIY ELEKTRON JURNALI





ISSN: 2181-3965
VOLUME 6
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

Sharipov Qo‘ng‘irotboy Avezimbetovich – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovaциyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma’naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta’lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

To‘lqin Zakirovich Teshabayev –iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne’matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymuratov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Fan, ta’lim, madaniyat, sport va yoshlar masalalari qo‘mitasi raisi

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta’lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu’min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)

Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyevich – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Teshayev Zavqiddin Jabbor o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Turizm va marketing kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Hazratqulov Shahboz Boboqul o‘g‘li – Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li – mas’ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O’zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

“**Moliyaviy texnologiyalar**” ilmiy elektron jurnali 23.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

MUNDARIJA			
1.	Jumayev Akbar Mahmudovich	Turizmning hududiy iqtisodiyotdagi o‘rni va joylashtirish resurslaridan foydalanish samaradorligini statistik baholash	8
2.	Mamutova Amina Raxmetovna	Qurilish tashkilotlarida zamonaviy va ananaviy usullarda xarajatlarni hisoblashning usullari	14
3.	Нурматова Насиба Шерзодовна, Гозиев Ризоиддин Чулпонович	Экономическая роль Узбекистана как стратегического партнера в Центральной Азии	23
4.	Amatov Azizbek G‘ayrat o‘g‘li	Tijorat banklarida aktiv va passivlarni boshqarishda obligatsiya emissiyasining o‘rni: likvidlik, muddatlar nomuvofiqligi va qayta moliyalash risklari	29
5.	Saitkulov Suxrob Shavkatovich	Budjet tashkilotlarida ichki auditning natijadorligini baholash ko‘rsatkichlari tizimini takomillashtirish	36
6.	Kulboyeva Nargiz Majitovna	Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonini takomillashtirish	43
7.	Alimqulov Hikmatulla Bahrom o‘g‘li	Prognozdan ortiq soliq tushumlarini hududiy budjetlarda qoldirishning tabaqalashtirilgan mexanizmi	52
8.	Jo’rayev Shoxrux Yunusali o’g’li, Temirova Dilshoda Erkin qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida Scope creep muammosi: sabablari, oqibatlari va oldini olish mexanizmlari	61
9.	Djurayeva Iroda Bahrom qizi	O‘zbekistonda institutsional islohotlar samaradorligini xalqaro boshqaruv indikatorlari asosida baholash	68
10.	Otaxonov Komilxon Saidolim o‘g‘li	Oliy ta’lim muassasalarining iqtisodiy barqarorligini kompleks baholash metodologiyasini takomillashtirish	73
11.	Tillaxo‘jayeva Sadoqatxon Shuxrat qizi, Ungarbayeva Aynura Baxtiyer qizi, Togayev Salim Sobirovich	Loyiha boshqaruvida xaridlar va manfaatdor tomonlar bilan ishlash	80
12.	Mexmonaliyev Abbosjon G‘ayratjon o‘g‘li	“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda moliyaviy-ekologik skoring modelini joriy etish mexanizmini takomillashtirish	88
13.	Shovkatov Nodirjon Ne’matjon öğli	Özbekistonda köçmas mulkni ommaviy baholaşning institutsional va metodologik asoslarini takomillaştiriş	95
14.	Jo‘rayev Isroil Ibrohimovich	Tijorat banklari faoliyati transformatsiyalashuvining bank xizmatlari raqobatbardoshligini oshirishdagi roli	103

15.	Tadjibekova Dilnoza Baxtiyarovna	Fintex to‘lov servislarining (Payme, Click, Uzum) moliyaviy inklyuziyani kengaytirishdagi roli va ahamiyati	112
16.	Davranov Odil Jumanazarovich	Surxondaryo viloyatida ovlangan baliqlar hajmi ko‘rsatkichlarini arima modeli yordamida prognozlashtirish	124
17.	Tashxodjayeva Sevara Yarashevna	HR-brendingning paydo bo‘lish shart-sharoitlari va asosiy tushunchalarining shakllanishi	135
18.	Shaislamova Nargiza Kabilovna, Zohidova Ruxsora Komiljon qizi	O‘zbekistonda islomiy moliya asosida investitsiya faoliyatini rivojlantirish yo‘nalishlari	141
19.	Сабирова Лола Шавкатовна	Взаимосвязь экономических и этических основ Узбекского предпринимательства	152
20.	Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich	O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va moliyaviy texnologiyalar bozorining rivojlanishi: tendensiyalar, xatarlar va tartibga solish yo‘nalishlari	158
21.	Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li	Bojxona auditida tanlov mexanizmlari va ichki nazoratni baholashning ilmiy-amaliy jihatlari	166
22.	Qilichev Sanjarbek Javlonbek o‘g‘li	Sug‘urta kompaniyalarining investitsion jozibadorligi iqtisodiy mohiyati va uni shakllantiruvchi omillarning nazariy-metodologik asoslari	173

ISSN: 2181-3965
VOLUME 5

O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI TO‘LOVLAR VA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI: TENDENSIYALAR, XATARLAR VA TARTIBGA SOLISH YO‘NALISHLARI



Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich
iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
“Iqtisodiyot va moliya” kafedrasi dotsenti v.b.,
Xalqaro innovatsion universiteti (Qarshi)
ORCID: 0009-0003-1297-315X
E-mail: dilshodbaxriyev@xiuedu.uz

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va fintex bozorining 2023–2025-yillardagi rivoji Markaziy bank ma’lumotlari asosida tahlil qilingan. Bank kartalari soni 68,3 mln donaga yetgani, ammo ularning 47 foizi ishlatilmayotgani va firibgarlik bo‘yicha murojaatlar 8,6 baravar oshgani aniqlangan. Faollikka asoslangan inklyuziya ko‘rsatkichlari hamda firibgarlikka qarshi choralar taklif etilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli to‘lovlar, moliyaviy texnologiyalar, fintex, to‘lov tashkilotlari, bank kartalari, mobil banking, tezkor to‘lovlar tizimi, moliyaviy inklyuzivlik, firibgarlik xatari, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish, ochiq bank xizmatlari, Markaziy bank.*

ЦИФРОВЫЕ ПЛАТЕЖИ И РАЗВИТИЕ РЫНКА ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТЕНДЕНЦИИ, РИСКИ И НАПРАВЛЕНИЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ

Бахриев Дилшод Ризвонкулович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам
и.о. доцента кафедры «Экономика и финансы»
Международного инновационного университета (Карши),

Аннотация. *В статье по данным Центрального банка анализируется развитие рынка цифровых платежей и финтеха Узбекистана в 2023–2025 гг. Число банковских карт достигло 68,3 млн, однако 47% из них не используются, а обращения о мошенничестве выросли в 8,6 раза. Предложены показатели активности и меры противодействия мошенничеству.*

Ключевые слова: *цифровые платежи, финансовые технологии, финтех, платёжные организации, банковские карты, мобильный банкинг, система мгновенных платежей, финансовая доступность, риск мошенничества, защита прав потребителей, открытый банкинг, Центральный банк.*

DIGITAL PAYMENTS AND THE DEVELOPMENT OF THE FINTECH MARKET IN UZBEKISTAN: TRENDS, RISKS AND REGULATORY DIRECTIONS

Baxriyev Dilshod Rizvonkulovich
Acting Associate Professor
Department of Economics and Finance
International Innovation University
(Karshi), PhD in Economics

Abstract. *The paper analyses Uzbekistan’s digital payments and fintech market in 2023–2025 using Central Bank data. Bank cards reached 68.3 million, yet 47 per cent remain unused and fraud-related complaints rose 8.6-fold. Activity-based inclusion indicators, proportionate regulation of payment organisations and centralised anti-fraud measures are proposed.*

Keywords: *digital payments, financial technology, fintech, payment organisations, bank cards, mobile banking, instant payment system, financial inclusion, fraud risk, consumer protection, open banking, Central Bank.*

Kirish

Raqamli to‘lovlar zamonaviy moliya tizimining asosiy infratuzilmasiga aylanib bormoqda. Ular to‘lov xarajatlarini kamaytiradi, iqtisodiy faoliyatning shaffofligini oshiradi va aholining bank xizmatlaridan foydalanishiga yo‘l ochadi. O‘zbekistonda bu jarayon so‘nggi yillarda ayniqsa tez kechdi: 2021–2025-yillarda karta orqali naqd pulsiz to‘lovlar YIMga nisbatan taxminan 25 foizdan 72 foizgacha oshgan [1], Markaziy bank raisining ma’lumotiga ko‘ra mamlakatdagi to‘lovlarning 57 foizi naqd pulsiz amalga oshirilmoqda [2].

Davlat siyosatida ham moliyaviy texnologiyalar ustuvor yo‘nalishga aylandi. Prezidentning 2025-yil 27-noyabrdagi PQ-359-son qarori bilan Markaziy bank fintex sohasini rivojlantirish uchun mas’ul organ etib belgilandi, 2026–2030-yillarda sohaga 1 mlrd dollar xorijiy investitsiya jalb etish, bozor ishtirokchilari sonini kamida 200 taga yetkazish va 5 ming yoshni fintex bo‘yicha o‘qitish vazifalari qo‘yildi [3]. Shu asosda 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirish milliy strategiyasi ishlab chiqildi [4].

Biroq to‘lov infratuzilmasining tez kengayishi bilan birga yangi muammolar ham yuzaga chiqmoqda: kartalarning katta qismi ishlatilmaydi, to‘lovlar asosan shaxslararo o‘tkazmalardan iborat, firibgarlik holatlari esa keskin ko‘paymoqda [5; 6]. Bu raqamli to‘lovlar rivojini faqat miqdoriy ko‘rsatkichlar bilan emas, balki foydalanish sifati va xatarlar nuqtai nazaridan ham baholashni talab etadi.

Maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar va fintex bozorining 2023–2025-yillardagi rivojlanish tendensiyalari, tarkibi va xatarlarini tahlil qilish hamda tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar sharhi

T. Philippon moliyaviy vositachilikning birlik xarajati so‘nggi yuz yilda deyarli kamaymaganini ko‘rsatib, fintex kompaniyalari aynan shu samarasizlikni qisqartirish va raqobatni kuchaytirish imkoniyatiga ega ekanini asoslagan [7]. J. Frost fintex xizmatlarining mamlakatlar bo‘yicha tarqalishini tahlil qilib, ularning rivojlanish darajasi an’anaviy moliyaviy xizmatlarning qimmatligi va yetarli emasligi, mobil aloqa qamrovi hamda tartibga solish muhiti bilan bog‘liq ekanini aniqlagan [8]. Ushbu xulosalar O‘zbekiston kabi bank xizmatlari qamrovi yaqin vaqtgacha past bo‘lgan va mobil aloqa keng tarqalgan mamlakatlarda fintexning tez o‘sishini izohlaydi.

A.V. Thakor fintexning banklar bilan munosabatini tahlil qilib, yangi texnologiyalar banklarni siqib chiqarishdan ko‘ra, ularni o‘z xizmatlarini raqamlashtirishga majbur qilishini va bozor tarkibini o‘zgartirishini ko‘rsatgan [9]. T. Suri va W. Jack Keniya misolida mobil pullardan foydalanish uy xo‘jaliklarining kambag‘allikdan chiqishiga, ayniqsa ayollar boshchiligidagi oilalarda, sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatganini isbotlagan [10]. Jahon bankining Global Findex tadqiqoti esa hisob raqamiga ega bo‘lish bilan undan faol foydalanish o‘rtasida katta farq mavjudligini va raqamli to‘lovlar moliyaviy inklyuzivlikning asosiy kirish nuqtasi ekanini qayd etgan [11].

O‘zbek olimlari orasida S.N. Xamrayeva fintex sanoatining institutsional shakllanishini tahlil qilib, to‘lov xizmatlari, neobanklar, muddatli to‘lov (BNPL) va islomiy fintex segmentlarini ajratgan hamda O‘zbekistonni mintaqaviy fintex markaziga aylantirish uchun tartibga solish, infratuzilma va kadrlar salohiyatini rivojlantirishni taklif etgan [12]. D. Normatova fintex startaplarining an’anaviy bank tizimi bilan munosabatini o‘rganib, regulyativ “qum qutisi” (sinov rejimi) mexanizmini kengaytirish zarurligini asoslagan [13]. Muallifning avvalgi tadqiqotida esa aholining moliyaviy savodxonligi moliyaviy xizmatlarga talabni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligi ko‘rsatilgan edi [14].

Mavjud tadqiqotlar asosan fintexning imkoniyatlari va institutsional rivojiga qaratilgan

bo‘lib, O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar o‘sishining sifati – faol foydalanish darajasi, to‘lov kanallari o‘rtasidagi raqobat va firibgarlik xatarlari – rasmiy statistika asosida yetarli darajada miqdoriy tahlil qilinmagan. Mazkur maqola ana shu bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning axborot bazasini Markaziy bankning 2025-yil uchun yillik hisoboti [6], Markaziy bank ma’lumotlari asosida e’lon qilingan to‘lov infratuzilmasi statistikasi [15], Markaziy bankning birinchi sinov tariqasidagi Moliyaviy inklyuzivlik milliy indeksi natijalari [5], KPMG kompaniyasi tomonidan Markaziy bank buyurtmasiga ko‘ra tayyorlangan to‘lov tashkilotlari sharhi [1] hamda “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun [16] va PQ-359-son qaror [3] tashkil etdi.

Tahlilda uch usul qo‘llanildi. Birinchidan, dinamik tahlil orqali to‘lov infratuzilmasi ko‘rsatkichlarining 2023–2026-yillar boshidagi o‘zgarishi va o‘sish sur’atlari hisoblandi. Ikkinchidan, tarkibiy tahlil orqali to‘lov kanallari (mobil bank ilovalari, to‘lov tashkilotlari, POS-terminallar, tezkor to‘lovlar, elektron pullar) bo‘yicha aylanmalar solishtirildi. Uchinchidan, qiyosiy tahlil orqali infratuzilmaga kirish imkoniyati ko‘rsatkichlari (hisob raqami, karta, internet-bank) va ulardan faol foydalanish ko‘rsatkichlari (faol kartalar ulushi, inklyuzivlik ballari) taqqoslandi. Foydalanish sifatini baholash uchun “faollik tafovuti” ko‘rsatkichi qo‘llanildi: u xizmatga kirish imkoniyatiga ega bo‘lganlar ulushi bilan undan amalda foydalanuvchilar ulushi o‘rtasidagi farq sifatida aniqlandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, to‘lov kanallari bo‘yicha aylanmalar bir-biri bilan qisman kesishadi (masalan, mobil ilova orqali amalga oshirilgan to‘lov to‘lov tashkiloti orqali ham o‘tishi mumkin), shu sababli ular umumiy yig‘indiga qo‘shilmadi va faqat nisbiy hajm sifatida taqqoslandi.

Tahlil va natijalar

To‘lov infratuzilmasining rivojlanishi. 1-jadvalda to‘lov infratuzilmasining asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval. O‘zbekistonda to‘lov infratuzilmasining asosiy ko‘rsatkichlari


Ko‘rsatkich	2024-yil (yoki 01.01.2025)	2025-yil (yoki 01.01.2026)	O‘zgarish
Muomaladagi bank kartalari, mln dona	62,0	68,3	+10 % (01.01.2023 da 34,2 mln – uch yilda 2 baravar)
POS-terminallar orqali to‘lovlar, trln so‘m	326,7	460,3	1,4 baravar
Bankomat va infokiosklar, dona	29 909	40 090	+34 %
Jismoniy shaxslarning mobil bank ilovalari orqali to‘lovlari, trln so‘m	–	645,6	1,6 baravar
To‘lov tashkilotlari orqali to‘lovlar, trln so‘m	–	412,4	+24 %
Tezkor to‘lovlar tizimi: tranzaksiyalar, mln / hajm, trln so‘m	–	61 / 1 390	+30 % / +51 %
Elektron hamyonlar, mln dona	–	24,8	+20 %
To‘lov tashkilotlari soni	44	47	+3
Kartadan naqd pul yechish koeffitsiyenti, %	21,8	18,7	–3,1 foiz bandi

Manba: Markaziy bankning 2025-yilgi yillik hisoboti [6] va Markaziy bank ma’lumotlari [15] asosida muallif tomonidan tuzilgan. “–” – manbada 2024-yil uchun mutlaq qiymat keltirilmagan, o‘zgarish sur’ati manbadan olingan.

Jadval ma’lumotlari to‘lov infratuzilmasining jadal kengayganini ko‘rsatadi. Muomaladagi bank kartalari soni 2023-yil boshidagi 34,2 mln donadan 2026-yil boshida 68,3 mln donaga, ya’ni uch yilda ikki baravarga oshgan [15]. POS-terminallar orqali to‘lovlar bir yilda 1,4 baravar ko‘payib, 460,3 trln so‘mga yetgan. Kartadan naqd pul yechish koeffitsiyentining 21,8 foizdan 18,7 foizga pasayishi kartaga tushgan mablag‘larning tobora katta qismi naqd pulga aylantirilmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘lovlarda ishlatilayotganini anglatadi [6]. Bu raqamli to‘lovlarning naqd pulni bosqichma-bosqich siqib chiqarayotganining muhim belgisidir.

Shu bilan birga, POS-terminallar soni bir yilda atigi 4 537 taga (taxminan 1 foizga) oshgan bo‘lsa, bankomat va infokiosklar soni 34 foizga ko‘paygan [15]. Ya’ni to‘lov o‘sishi yangi savdo nuqtalari hisobiga emas, balki mavjud terminallar va mobil kanallar orqali tranzaksiyalar zichligining oshishi hisobiga ro‘y bermoqda.

To‘lov kanallari tarkibi va raqobat. 1-rasmda 2025-yilda asosiy to‘lov kanallari orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi taqqoslangan.



1-rasm. 2025-yilda asosiy to‘lov kanallari bo‘yicha to‘lovlar hajmi, trln so‘m

Manba: Markaziy bankning 2025-yilgi yillik hisoboti [6] asosida muallif tomonidan tuzilgan. Kanallar bo‘yicha aylanmalar qisman kesishadi.

Rasmdan ko‘rinadiki, tezkor to‘lovlar tizimi (1 390 trln so‘m) va banklarning mobil ilovalari (645,6 trln so‘m) eng yirik kanallarga aylangan. Mobil bank ilovalari orqali to‘lovlar hajmi to‘lov tashkilotlari aylanmasidan (412,4 trln so‘m) 1,6 baravar ko‘p. KPMG sharhida ham to‘lov tashkilotlari hali o‘sayotgan bo‘lsa-da, funksionallik va ekotizimlar hisobiga mobil banking asosiy kanalga aylanayotgani, bu esa to‘lov tashkilotlariga raqobat bosimini kuchaytirayotgani qayd etilgan [1]. Shuningdek, to‘lov tashkilotlari uchun aksiyadorlik jamiyati shakli majburiy qilingani va eng kam ustav kapitali 10 mlrd so‘mdan 20 mlrd so‘mga oshirilgani bozorda konsolidatsiyani tezlashtirmoqda [1].

A.V. Thakor ko‘rsatganidek, fintexning rivojlanishi banklarni siqib chiqarishdan ko‘ra, ularni raqamlashtirishga undaydi [9]. O‘zbekiston tajribasi bu xulosani tasdiqlaydi: bozor yetakchiligi mustaqil fintex kompaniyalaridan ko‘ra raqamlashgan banklar va ularning ekotizimlari qo‘liga o‘tmoqda. Elektron pullar esa hajm jihatidan hali kichik bo‘lib, 2025-yilda 24,6 mln tranzaksiya orqali atigi 1,2 trln so‘m aylanmani tashkil etgan [6].

Moliyaviy xizmatlardan foydalanish: kirish imkoniyati va faollik. 2-jadvalda Markaziy bankning Moliyaviy inklyuzivlik milliy indeksi va yillik hisoboti ma’lumotlari asosida kirish imkoniyati va faol foydalanish ko‘rsatkichlari taqqoslangan.

2-jadval.

Kattalar o‘rtasida moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyati va ulardan faol foydalanish (2025-yil)

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Bank hisob raqamiga ega kattalar ulushi, %	82,4	shundan faol hisob raqamlari – 72 %
Bank kartasiga ega kattalar ulushi, %	83	bir kishiga o‘rtacha 3,2 ta karta
Faol internet-bank profiliga ega kattalar, %	≈77	–
Mobil internet orqali to‘lovga kirish imkoniyati, %	86,3	–
So‘nggi 12 oyda ishlatilmagan kartalar ulushi, %	47	faol kartalar – 53 %
Shaxslararo (P2P) o‘tkazmalar ulushi (tranzaksiyalarda), %	69	–
Omonatga ega kattalar ulushi, %	14,7	+2 foiz bandi
Inklyuzivlik bahosi (100 ballik shkala): to‘lov xizmatlari / jamg‘arma / kredit	34 / 68 / 47	–

Manba: Moliyaviy inklyuzivlik milliy indeksi [5] va Markaziy bankning 2025-yilgi yillik hisoboti [6] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval kirish imkoniyati va faol foydalanish o‘rtasidagi sezilarli tafovutni ko‘rsatadi. Kattalarning 83 foizi bank kartasiga ega, 86,3 foizi mobil internet orqali to‘lov qilish imkoniyatiga ega bo‘lsa-da, kartalarning 47 foizi bir yil davomida umuman ishlatilmagan [5]. Faollik tafovuti hisob raqamlari bo‘yicha 10,4 foiz bandini (82,4 – 72,0) tashkil etadi. Bundan tashqari, to‘lov tranzaksiyalarining 69 foizi shaxslararo o‘tkazmalardan iborat bo‘lib, bu raqamli to‘lovlar ko‘pincha savdo va xizmatlar uchun to‘lov emas, balki pul o‘tkazish vositasi sifatida ishlatilayotganini ko‘rsatadi.

Eng muhim natija – to‘lov xizmatlari bo‘yicha inklyuzivlik bahosining (34 ball) jamg‘arma (68 ball) va kredit (47 ball) xizmatlaridan past ekanligi. Ya’ni to‘lov infratuzilmasi eng tez rivojlangan bo‘lsa-da, undan sifatli va xilma-xil foydalanish darajasi eng past. Bu Global Findex tadqiqotida qayd etilgan “hisob raqamiga ega bo‘lish faol foydalanishni anglatmaydi” degan xulosaga [11] mos keladi. Muallifning avvalgi tadqiqotida ko‘rsatilganidek, moliyaviy savodxonlikning yetarli emasligi moliyaviy xizmatlardan foydalanishni cheklovchi asosiy omillardan biridir [14].

Iste’molchilar himoyasi va firibgarlik xatarlari. Raqamli to‘lovlarning tez o‘sishi firibgarlik xatarlarining keskin ortishi bilan birga kechmoqda. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra 2025-yilda firibgarlik bilan bog‘liq murojaatlar soni 8,6 baravar ko‘paygan, Markaziy bankka jami 5 379 ta murojaat kelib tushgan, iste’molchilarning 1 961 ta shikoyati ko‘rib chiqilib, 188 ta holatda ularning huquqlari tiklangan [6]. Bunga javoban Markaziy bank firibgarlik holatlarini tahlil qilish muddatini 3 ish kunidan 4 soatgacha qisqartirgan, axborot xavfsizligi bo‘yicha 37 ta tekshiruv o‘tkazib, 3 ta bankka 115 mln so‘m miqdorida jarima qo‘llagan; o‘z nomiga kredit olinishini taqiqlash (“kredit muzlatish”) xizmatidan 170 mingdan ortiq fuqaro foydalangan [6].

Firibgarlik bo‘yicha murojaatlarning 8,6 baravar o‘sishi kartalar soni (+10 foiz) va to‘lovlar hajmi (1,4–1,6 baravar) o‘sishidan bir necha marta yuqori. Bu firibgarlik xatarlari to‘lovlar hajmiga mutanosib emas, balki ancha tez o‘sayotganini ko‘rsatadi. Milliy strategiyada ham raqamli moliyaning tez o‘sishi bilan bog‘liq firibgarlik va iste’molchilar uchun xatarlar asosiy muammolar qatoriga kiritilgan [4].

Davlat siyosati va tartibga solish. 3-jadvalda PQ-359-son qaror bilan belgilangan asosiy

vazifalar va muddatlar keltirilgan.

3-jadval.

PQ-359-son qaror bilan belgilangan fintex sohasini rivojlantirish vazifalari

Yo‘nalish	Vazifa	Muddat / mo‘ljal
Investitsiyalar	Fintex startaplariga xorijiy investitsiya jalb etish	1 mlrd dollar (2026–2030)
Bozor ishtirokchilari	Fintex bozori ishtirokchilari soni	kamida 200 ta
Kadrlar	Yoshlarni fintex bo‘yicha o‘qitish	kamida 5 000 kishi
Moliyalashtirish	Markaziy bank huzurida venchur jamg‘arma	ustav kapitali 50 mln dollar
Tezkor to‘lovlar	Jismoniy shaxslarning bank hisob raqamlari orqali real vaqt rejimida o‘tkazmalari	01.02.2026 gacha
Ochiq bank xizmatlari	Ochiq bank tizimini joriy etish	01.09.2026 gacha
Raqamli aktivlar	Stabilkoinlar uchun maxsus rejim; tokenlashtirilgan aksiya va obligatsiyalar chiqarish	01.01.2026 dan
Strategiya	2026–2030-yillarga mo‘ljallangan fintex milliy strategiyasini ishlab chiqish	01.04.2026 gacha

Manba: PQ-359-son qaror [3] asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qaror fintex sohasini rivojlantirish uchun keng qamrovli institutsional asos yaratgan: Markaziy bank sohaning yetakchi organi sifatida belgilangan, venchur jamg‘arma va innovatsion hab tashkil etilgan, ochiq bank xizmatlari, tezkor to‘lovlar va raqamli aktivlar bo‘yicha aniq muddatlar qo‘yilgan [3]. Biroq belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlar asosan investitsiya, ishtirokchilar soni va kadrlar kabi taklif tomoniga qaratilgan bo‘lib, aholining raqamli to‘lovlardan faol foydalanishi va iste’molchilar himoyasi bo‘yicha miqdoriy mo‘ljallar belgilanmagan. Vaholanki, yuqoridagi tahlil aynan shu ikki yo‘nalishda eng katta muammolar mavjudligini ko‘rsatdi.

Natijalar muhokamasi. Tahlil natijalarini xalqaro tadqiqotlar xulosalari bilan solishtirish quyidagi holatlarni ko‘rsatadi.

Olingan natijalar O‘zbekistonda raqamli to‘lovlar infratuzilmasi xalqaro miqyosda ham yuqori sur’atlarda rivojlanayotganini tasdiqlaydi. J. Frost aniqlagan omillar – an’anaviy moliyaviy xizmatlarning yetarli emasligi, mobil aloqaning keng qamrovi va qo‘llab-quvvatlovchi tartibga solish [8] – O‘zbekistonda bir vaqtda mavjud bo‘lib, ular kartalar sonining uch yilda ikki baravar oshishini va naqd pulsiz to‘lovlarning YIMga nisbati qariyb uch baravar o‘sishini [1] izohlaydi.

Biroq tahlil miqdoriy o‘sish va sifat o‘rtasida tafovut mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchidan, kartalarning deyarli yarmi ishlatilmaydi va to‘lov xizmatlari bo‘yicha inklyuzivlik bahosi past. T. Suri va W. Jack ko‘rsatgan mobil pullarning ijtimoiy samarasi [10] faqat xizmatlardan muntazam va xilma-xil foydalanilganda yuzaga chiqadi; kartaning mavjudligi o‘z-o‘zidan bunday samarani bermaydi. Shu sababli moliyaviy inklyuzivlik siyosatini baholashda kartalar soni kabi kirish ko‘rsatkichlaridan faollik ko‘rsatkichlariga o‘tish zarur.

Ikkinchidan, bozor tarkibi banklar foydasiga o‘zgarmoqda. T. Philippon fintexning asosiy ijtimoiy foydasi raqobatni kuchaytirish va vositachilik xarajatlarini kamaytirishda ekanini ta’kidlagan [7]. Agar kapital talablari va raqobat bosimi natijasida mustaqil to‘lov tashkilotlari soni keskin qisqarsa, bozor yirik bank ekotizimlari o‘rtasida taqsimlanib, raqobatdan kutilgan foyda kamayishi mumkin. Bu S.N. Xamrayeva va D. Normatova ta’kidlagan startaplarni qo‘llab-quvvatlash va sinov rejimini kengaytirish zaruratini [12; 13] yanada dolzarb qiladi. Shu nuqtai nazardan, to‘lov tashkilotlariga bir xil talablar o‘rniga, ularning hajmi va xatar darajasiga mos (proporsional) talablar qo‘llash maqsadga muvofiq.

Uchinchidan, firibgarlik xatarlarining to‘lovlar hajmidan bir necha marta tez o‘sishi raqamli to‘lovlar ishonchliligiga tahdid soladi. Aholi ishonchi yo‘qolsa, raqamli kanallardan naqd pulga qaytish ro‘y berishi mumkin. Markaziy bankning tahlil muddatini qisqartirish va “kredit muzlatish” kabi choralari [6] to‘g‘ri yo‘nalish, biroq ular asosan sodir bo‘lgan holatlarga javob beradi. Firibgarlikning oldini olish uchun to‘lovni amalga oshirishdan oldin qabul qiluvchini tekshirish va xatarli o‘tkazmalarni vaqtincha to‘xtatish kabi profilaktik mexanizmlar zarur.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. O‘zbekistonda to‘lov infratuzilmasi jadal kengaymoqda: bank kartalari soni uch yilda ikki baravarga oshib, 68,3 mln donaga yetgan, POS-terminallar orqali to‘lovlar 1,4 baravar, mobil bank ilovalari orqali to‘lovlar 1,6 baravar ko‘paygan, kartadan naqd pul yechish koeffitsiyenti esa 18,7 foizgacha pasaygan.

2. To‘lov bozorida yetakchilik raqamlashgan banklarga o‘tmoqda: mobil bank ilovalari orqali to‘lovlar (645,6 trln so‘m) to‘lov tashkilotlari aylanmasidan (412,4 trln so‘m) 1,6 baravar ko‘p, kapital talablarining oshirilishi esa konsolidatsiyani tezlashtirmoqda.

3. Kirish imkoniyati va faol foydalanish o‘rtasida katta tafovut mavjud: kartalarning 47 foizi ishlatilmaydi, to‘lov xizmatlari bo‘yicha inklyuzivlik bahosi 34 ballni tashkil etadi, tranzaksiyalarning 69 foizi shaxslararo o‘tkazmalardir.

4. Firibgarlik bo‘yicha murojaatlar 8,6 baravar ko‘paygan bo‘lib, xatarlar to‘lovlar hajmidan bir necha marta tez o‘smoqda.

Aniqlangan muammolarni hal etish uchun quyidagilar taklif etiladi:

– fintex strategiyasi va moliyaviy inklyuzivlik siyosatiga faollikka asoslangan maqsadli ko‘rsatkichlarni (faol kartalar ulushi, savdo to‘lovlarining ulushi, to‘lov xizmatlari bo‘yicha inklyuzivlik bahosi) kiritish va ularni har yili e’lon qilish;

– to‘lov tashkilotlariga nisbatan ularning aylanmasi va xatar darajasiga mos proporsional talablar tizimini joriy etish, kichik innovatsion kompaniyalar uchun regulyativ sinov rejimi orqali bozorga kirish yo‘lini saqlab qolish;

– firibgarlikka qarshi markazlashgan ma’lumotlar bazasini yaratish, yangi qabul qiluvchiga yirik o‘tkazmalarda to‘lovdan oldin qabul qiluvchi nomini tekshirish (“confirmation of payee”) va shubhali o‘tkazmalarni vaqtincha to‘xtatish mexanizmlarini majburiy qilish;

– ochiq bank xizmatlarini yagona API standartlari asosida bosqichma-bosqich joriy etish va mijoz roziligi bilan ma’lumot almashish tartibida iste’molchi ma’lumotlarini himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash;

– aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini firibgarlikning keng tarqalgan usullari va ulardan himoyalanish bo‘yicha amaliy bilimlar bilan to‘ldirish.

Ushbu choralar raqamli to‘lovlarning miqdoriy o‘sishini sifatli foydalanish va ishonchli iste’molchi muhiti bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Izoh: maqolani tayyorlashda sun’iy intellekt vositalaridan ma’lumot manbalarini izlash va matnni tahrirlashda yordamchi sifatida foydalanildi; barcha raqamlar, hisob-kitoblar, manbalar va xulosalar muallif tomonidan tekshirilgan, mazmun uchun mas’uliyat muallif zimmasida.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. KPMG Uzbekistan. Overview of payment organizations in Uzbekistan (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki buyurtmasi va axborot ko‘magida). – Tashkent, 2026. – https://kpmg.com/uz/en/insights/2026/09/overview-of-payment-organizations.html.

2. [Markaziy bank raisi T. Ishmetovning Silk Road Finance & Technology Forum’dagi chiqishi haqida xabar] // Spot.uz. – 2026, 24-avgust. – https://www.spot.uz/oz/2026/08/24/cb-strategy/.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-noyabrdagi PQ-359-son “O‘zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi qarori. – https://lex.uz/uz/docs/7864260.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2026–2030-yillarga mo‘ljallangan moliyaviy texnologiyalar sohasini rivojlantirish milliy strategiyasi. – Toshkent, 2026. – https://cbu.uz/uz/fintech/strategy/.

5. Nearly half of Uzbekistan’s bank cards go unused despite widespread access to digital payments (Markaziy bankning Moliyaviy inklyuzivlik milliy indeksi asosida) // Kun.uz. – 2026, 20 August. – https://kun.uz/en/news/2026/08/20/nearly-half-of-uzbekistans-bank-cards-go-unused-despite-widespread-access-to-digital-payments.

6. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. Annual Report 2025. – Tashkent, 2026. – https://cbu.uz/upload/medialibrary/b0d/4h8ufsm1pbs5e7dl336ygil61lalyws1/Annual-report-2025.pdf.

7. Philippon T. The FinTech opportunity. NBER Working Paper No. 22476. – Cambridge, MA: National Bureau of Economic Research, 2016.

8. Frost J. The economic forces driving fintech adoption across countries. BIS Working Papers No. 838. – Basel: Bank for International Settlements, 2020.

9. Thakor A.V. Fintech and banking: What do we know? // Journal of Financial Intermediation. – 2020. – Vol. 41. – Article 100833.

10. Suri T., Jack W. The long-run poverty and gender impacts of mobile money // Science. – 2016. – Vol. 354, № 6317. – P. 1288–1292.

11. Demirgüç-Kunt A., Klapper L., Singer D., Ansar S. The Global Findex Database 2021: Financial inclusion, digital payments, and resilience in the age of COVID-19. – Washington, DC: World Bank, 2022.

12. Khamraeva S.N. O‘zbekistonda fintex sanoati evolyusiyasi: salohiyat va kelgusidagi rivojlanish // Innovatsion iqtisodiyot. – 2026. – 2-jild, № 1. – https://ojs.qmii.uz/index.php/ej/article/view/1088.

13. Normatova D. The role and development trends of fintech startups in Uzbekistan’s financial market // TDIU Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali. – 2026. – № 1. – B. 80–88. – DOI: 10.5281/zenodo.20823154.

14. Baxriyev D.R. Aholining moliyaviy savodxonligi va sug‘urta xizmatlariga talab: O‘zbekiston uy xo‘jaliklari misolida // Innovatsion iqtisodiyot. – 2026. – № 11. – B. 10–17. – DOI: 10.70769/3030-315X.II.11.11.2026.2.

15. Cashless transactions surge as bank card usage rises across Uzbekistan (Markaziy bank ma’lumotlari asosida) // Kun.uz. – 2026, 9 February. – https://kun.uz/en/news/2026/02/09/cashless-transactions-surge-as-bank-card-usage-rises-across-uzbekistan.

16. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi O‘RQ-578-son “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonuni. – https://lex.uz/docs/4575786.